

Foreign Trade in the Republic and its Role in the Economy

*Jumayev Qurbonmurod Xurramovich*¹, *Baxtiyorova Xumora Faxriddin qizi*²,
*Sultonova Zaxro Furqat qizi*³

Annotation: This article discusses foreign trade in Uzbekistan and its importance in economic development, positive and negative features of export and import of goods and services in the country's economy, economic relations in the development of export and import, export and import composition, etc.

Keywords: Foreign trade, export, import, positive and negative balance, foreign trade turnover, customs, export potential, re-export, re-import, induction and deduction, international trade.

Introduction

Dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatmoqda. Ikki va ko'p tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining mustaqil ovozigacha ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yilda dastlabki ma'lumotlarga ko'ra respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga yoki 2024- yil yanvar- noyabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 59,4 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,1 mlrd AQSH dollariga yoki 3,6 % ga ko'paydi[7].

Shunday sharoitda mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatida tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarning barpo etilishi, infratuzilma, ijtimoiy soha, mahsulot va xizmatlarning mamlakat tashqarisiga eksport qilinishi yoki chet el fuqarolariga, korxonalar va tashkilotlariga, shu jumladan respublikadagi xorijiy korxonalar va qo'shma korxonalariga sotilishi bilan aniqlanadi.

Mamlakat tashqi iqtisodiy potensialini aniqlovchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar YaIM ishlab chiqarish hajmi (2023 yil -1066569,0 mlrd. so'm), shu jumladan aholi jon boshiga (2023 yil -29291,4 ming so'm), YaIMda tovar va xizmatlar eksportining ulushi hamda tovarlar umumiy eksporti hajmida sanoat tovarlari ulushi hisoblanadi.

Shuning uchun ham, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida nafaqat aholining oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga hamda turli xil xizmatlarga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondirishda balki, respublikadagi barcha ishlab chiqarish sohasining tayyor texnika va texnologiyaga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda tashqi savdo, ya'ni, eksport va import muhim o'rin egallab, bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida uning ahamiyati kattadir.

¹ Associate Professor, Candidate of Economic Sciences, Department of Economics, Tashkent Institute of Economics and Pedagogy

jumayevqurbonmurod1965@gmail.com

² Student of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy, group "Economics" 24/1

³ Student of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy, "Economics", group 24/2



Methodology

O‘zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, eksport va import munosabatlarini rivojlantirishning innovatsion boshqaruvi samaradorligi masalalari bo‘yicha muammoning umumiy tomonlari qator iqtisodchi olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan. Ularning ishlari xo‘jalik yuritishning bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi savdo va eksport-import munosabatlarini samarali yuritish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan, jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 13 apreldagi PF-5012-son Farmonida [1] “... tashqi savdo faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, jahon bozorlarining kompleks marketing tadqiqotlarini olib borish, O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda ko‘maklashish, tashqi bozorlardagi talab-ehhtiyojlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarning raqobatdoshligini kuchaytirish va rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va xillarini tizimli asosda tahlil qilish, tashqi bozorlarda uning raqobatdoshligi darajasini aniqlash, tegishli ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan savdo hamkorligini kengaytirish va mustahkamlashga ko‘maklashish, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlash, sotish bozorlarini diversifikatsiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ishonchli xorijiy savdo sheriklarini izlash va tanlashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, shuningdek, mahalliy korxonalarining tender savdolarida, halqaro savdo-sanoat ko‘rgazmalari, yarmarkalarida va xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan boshqa shunday tadbirlarda ishtirok etishlariga amaliy yordam ko‘rsatish, import bo‘yicha keltiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning hajmi va tarkibini chuqur tahlil qilish, mahalliy xomashyo negizida import o‘rnini bosadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish hamda ularni mahalliyashtirish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish bo‘yicha konsepsiya va dasturlar ishlab chiqishda qatnashish, tashqi savdo asosiy ko‘rsatkichlari parametrlarini shakllantirishda va O‘zbekiston Respublikasining bojxona-tarif siyosatini takomillashtirishda ishtirok etish, tashqi savdoni liberallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, tovarlar (ishlar va xizmatlar), shu jumladan, o‘ziga xos tovarlar va sanoat mahsulotlari tashqi savdosi, shuningdek, tashqi savdoda tarif va notarif boshqaruvi choralari qo‘llash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq tadbirlarni muvofiqlashtirish ...” va “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 3 noyabrdagi FQ-3351-son Qarorlarida [2] “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarning eksport hajmlari va turlarini ko‘paytirish, tadbirkorlik sub’ektlarining raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, eksportga bojxona rasmiylashtiruv, Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida (TSOYaEA) hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma‘lumotnomasiz amalga oshirish ...” kabi jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

N.I.Asqarovning ilmiy izlanishlarida “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohalarini uyg‘un boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” jarayonlari mavzusida bojxona siyosatining mohiyati, uni samarali boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikka yondoshuv negizida tashqi savdoni bojxona omili asosida boshqarish va tashqi savdo tarkibini optimallashtirish ishlarini tartibga solish kabi jihatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan [3].

Z.J.Adilovanning «Xalqaro bozorga eksport mahsulotlarini yo‘naltirishning marketing strategiyasi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida milliy xo‘jalik taraqqiyotida xalqaro marketing o‘rni, uning uslubiy jihatlari, maqsadli bozorlarni tanlashdagi ahamiyati, ayniqsa, ilk bor xomashyo va tayyor mahsulotlarni xalqaro bozorlarga yo‘naltirishda “milliy marketing”, “eksport marketingi” va “xalqaro marketing” tushunchalari qiyoslangan va zamonaviy tamoyillarga asoslangan uslubiy yondoshuvlar taklif etilgan [4].



Literature review

O'zbekiston tashqi savdosida yaqin yillargacha asosiy o'rinlaridan birini egallab kelgan paxtachilik tarmog'ining rivojlanish bosqichlari, paxta tolasi va tayyor mahsulotlari eksport salohiyati masalalari D.Q.Axmedov, R.V.Abdullaev, M.R.Boltabaev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Q.Axmedovning ishlarida paxta tolasini O'zbekistonda ishlab chiqarishning makro va mikroiqtsodiy muammolari, paxtachilik istiqbollari hamda agrosanoat majmuidagi o'rni tahlil etilgan bo'lsa[5], R.V.Abdullaevning ilmiy ishlarida paxta tolasi bozori infratuzilmasini shakllantirish va eksportni kengaytirishning asosiy yo'nalishlari, Q.X.Jumayevning "O'zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati"[6] nomli maqolasida tashqi savdoning asosiy bosqichlari belgilab berilgan. M.R.Boltabaevning ishlarida esa tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu jarayonlarning marketing konsepsiyasi hamda strategiyasiga binoan boshqarish masalalarini chuqur tahlil etilib, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda qo'yilgan masalalar ancha teran ishlab chiqilgan bo'lsada, lekin milliy xo'jalik taraqqiyotida xalqaro savdoning o'rni, shuningdek, xalqaro savdoning kelib chiqishi, tashqi savdoda eksport va import hamda ularning maqsadli bozorlarni tanlashdagi ahamiyati, xalqaro bozorlarning jozibadorligi va ularning iste'mol salohiyatini baholash ahamiyati, eksport mahsulotlarni maqsadli bozorlarga yo'naltirishda ishlab chiqarishning xalqaro integratsiyasi strategiyalaridan samarali foydalanish jarayonlari, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda etishtirib berilayotgan tayyor mahsulotlar tarkibi va mamlakatlar geografiyasini kengaytirish masalalari kabi jihatlari deyarli o'rganilmagan.

Tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tanlash, umumlashtirish, dinamik o'zgarishni aniqlash, makroiqtisodiy ma'lumotlarni taxlil qilish, induksiya va deduksiya, klassifikatsiyalash, algoritmlashtirish, dasturlash, qiyosiy taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan.

Tashqi savdo - bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan o'zaro tovar almashish jarayonidir. Tashqi savdo mamlakatdan tovar va xizmatlar chiqishi (eksport) va kirib kelishi (import)dan tashkil topadi.

Eksport va import yig'indisi mamlakatning tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi.

Tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng qadimiy shaklidir. Insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G'arb dunyosini bir-biri bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li qit'alararo savdoni yo'lga qo'ydi. Bu yo'l qadimgi yerlarimiz hududida joylashgan shaharlarda savdo-sotiqning keng quloqch yoyishiga olib kelgan.

Eksport (ing. export, lot. exporto – olib chiqaman, chetga chiqaraman) – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarishdir.

Tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika yutuqlari va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgarib boradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k.).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalariga aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi.



Import (ing. import – keltirish, olib kelish) – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, chet el tovarlari, xizmatlari, texnologiyalar va boshqalarni keltirishdir. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog'dagi xarajatlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlar import qilinadi.

Import bojxona bojlari, shuningdek, miqdoriy cheklashlar, litsenziyalash tizimi va boshqa notarif tarzidagi vositalar bilan tartibga solinadi.

Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – bu mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismidir.

Qaysidir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport ro'y beradi, reimport esa iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

Agar mamlakatda eksport miqdori import miqdoridan oshib ketsa, bu nimalarga ta'sir qiladi?

*Birinchi*dan, mamlakat oltin valyuta zaxiralari hajmiga ta'sir qiladi. Chunki, eksportni biz xorijiy valyutaga sotamiz va o'z navbatida importni ham xorijiy valyutaga sotib olamiz, ya'ni eksportning importdan oshishi – mamlakatga sof xorijiy valyutaning kirib kelishini bildiradi.

*Ikkinchi*dan, bu sof xorijiy valyutaning kirib kelishi o'z navbatida milliy valyuta almashuv kursiga ta'sir qiladi:

Xorijiy valyutalar kirib kelishining o'sishi (sof eksport > 0) \Rightarrow Valyuta bozorida xorijiy valyutalarning o'sishi \Rightarrow bozordagi talab va taklif qonuniga asosan milliy valyutaning mustahkamlanishini bildiradi.

*Uchinchi*dan, xalqaro iqtisodiy infratuzulmadagi shart-sharoitlarning yaratilishi mamlakatdagi inflyasiyaga ta'sir qiladi:

Eksport tovarlar narxining o'sishi \Rightarrow xorijiy valyutalarning o'sishi (sof eksport > 0) \Rightarrow Mamlakat ichida so'mga bo'lgan talabning oshishi (eksportchilarga so'm kerak - qonun bo'yicha mamlakat ichidagi soliqlar, ish haqi va boshqa to'lovlarni olib borishga) \Rightarrow Markaziy bank bu talabni qondirishi zarur – qog'oz pul chiqarish orqali (so'mning emissiyasi) \Rightarrow Iqtisodiyotda inflyasiya tendensiyasi ro'y beradi.

*To'rtinchi*dan, Mamlakatning tashqi qarzi hajmiga ta'sir qiladi (mamlakatning tashqi savdodagi ijobiy qoldig'i xalqaro bozorlarga qaramlikni yumshatadi va mamlakatning tashqi qarzini xorijiy valyutada to'lash imkonini beradi).

*Beshinchi*dan, investitsiyaviy muhitga ijobiy ta'sir qiladi (chunki, sarmoyachilar bunday holatlarga jiddiy e'tibor berishadi).

Nima sababdan mamlakatlar tashqi savdo yoki xalqaro savdo aloqalarini yanada kengaytirishga ahamiyat beradilar?

Chunki, har qanday ayirboshlashning ahamiyati, uning samaradorligi bilan, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham kelishilgan bitimlardan tomonlarning oladigan samarasi bilan belgilanadi. Ya'ni, xoh tovar va xoh xizmatlar savdosi bo'lsin, ayirboshlashdan olinadigan afzallikka har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi tizimi o'zaro manfaatdor bo'ladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro ayirboshlash va xalqaro savdoning rivojlanishida globallashuvning ahamiyati to'g'risida gapiradigan bo'lsak, mamlakatlar qadim zamonlardan buyon moddiy noz-ne'matlarni tayyor mahsulotlar va turli xil resurslar ko'rinishida o'zaro ayirboshlab kelishgan, ya'ni birlari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishgan. O'z navbatida, ayirboshlashning hajmi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga va tovar ishlab chiqarish hajmining oshishiga bog'liq bo'lgan. Chunki, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bir tomondan, mamlakatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan, turli xil xomashyolar,



materiallar va boshqa resurslarga bo'lgan talabning oshib borishi ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuvning shakllanishi mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan. Globallashuvning I bosqichi 1870-1913 yillar mobaynida shakllandi va bu davr mobaynida tovarlar ayirboshlash 20 martagacha oshdi yoki jahon ishlab chiqarishining 33 foizini tashkil etdi. Globallashuvning II bosqichi 1950-1973 yillarga to'g'ri keladi va bu davr jahon ishlab chiqarishida va savdosida "oltin davr" hisoblanadi. Globallashuvning III bosqich davri o'z ichiga 1983 yildan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda va bu bosqichda jahon iqtisodiyotida yirik integratsion hududlar, ya'ni NAFTA, yevropa Ittifoqi, ASeAN, ATeS, MeRKOSUR hamda Yaponiya blokining paydo bo'lishi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish orqali dunyo bozorlariga kirib borishni asosiy maqsad qilib oldilar.

O'z navbatida xalqaro savdoning rivojlanishi Umumjahon savdo tashkiloti mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini tartibga solish, (GATT-the General agreement on tariff and trade) nazorat qilish yoki bir necha mamlakatning boshqalarga nisbatan kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik kabi muhim vazifalarni bajarishi natijasini bildiradi.

Results and discussion

Mamlakatimizda xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar o'rta asrlardan boshlangan va u bugungi integratsiyalashuv jarayonida ham o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqaro savdoni erkinlashtirishning asosiy omillaridan biri xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish va ana shu tashkilotlar doirasida faoliyat ko'rsatish jarayonlarini faollashtirishi zarur edi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti (ShHXT), Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT), Jahon Savdo Tashkilotining kuzatuvchisi (JST), Jahon Banki (JB), Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, YuNeSKO va shu kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishga erishdi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan hamkorligi alohida o'rin tutadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat har jihatdan dunyoda o'z mavqeyiga ega va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishda ham o'rnak bo'la oladi.

Xo'sh, O'zbekiston xalqaro savdoda ishtirok etishning barcha huquqiy-me'yoriy talablariga javob berar ekan, uning iqtisodiyotida eksport va importni rivojlantirish orqali qanday imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin?

Birinchidan, tashqi bozorga o'zining tayyor mahsulotlari bilan chiqayotgan ishlab chiqaruvchilar rag'batlantiriladi, ya'ni ular mahsulotlarini eksport qilish orqali barqaror valyuta zaxiralari ega bo'ladilar.

Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilar o'z ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida texnika va texnologiyalarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, tashqi bozorlarni monitoring qilish orqali ichki va tashqi bozorlarda talabgor bo'lgan import hamda eksport tovarlari o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarini qurish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotda texnologik yangilanish amalga oshadi va milliy sanoat ishlab chiqarishiga yangi texnika va zamonaviy uskunalar o'rnatiladi va natijada jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlaydi.

Beshinchidan, mamlakatimizda xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi yanada mustahkamlanadi.

Bir so'z bilan aytganda mamlakat iqtisodiyoti uchun eksportning ahamiyati quyidagilarda ifodalanadi:



1. YalMning oshishiga yordamlashadi va korxonalar hamda tashkilotlarning yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatini beradi. Eksport hajmi qancha katta bo‘lsa, shuncha ko‘p mablag‘ davlat byudjetiga tushadi. Boshqa tomondan, bu yanada ko‘p mahsulot ishlab chiqarish zarurligini shakllantiradi, bu uchun esa yanada ko‘proq ishchi-xodimlar yollanishini taqozo etadi. Demak, eksport nafaqat iqtisodiyotni yaxshilash usuli, balki ishsizlikning yuqori darajasiga kurashning eng muhim vositalaridan biri hamdir.





2. Mamlakatga chet el valyutasi oqimining oshishiga yordam beradi. Xorijga o‘z tovarlarini sotib, O‘zbekiston kompaniya va korxonalari AQSh dollari yoki yevroda foyda oladilar. Shu uchun eksport mamlakatga chet el valyutasini jalb etishning muhim manbai hisoblanadi. Eksportning o‘shishi, milliy valyutani mustahkamlash imkonini beradi va davlatning muvozanatlashgan savdo balansini ushlab yordam beradi. Ammo, shuni ham aytish joizki, eksportning importdan keskin oshib ketishi savdo balansiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ham mumkin. Agar milliy valyuta kursi keskin ko‘tarilib ketsa, bunday holda tovarlar va xizmatlar narxlarining qimmatlashuvi natijasida ularning xaridorgirligi, raqobatbardoshligi tashqi bozorda tushib ketadi va natijada eksportning kamayishiga olib keladi. Shu sababdan ham mamlakatlar eksport va importning balansini saqlashga harakat qiladilar[5].

2023 йил якуни бўйича Ўзбекистон Республикаси жаҳоннинг 164 дан ортиқ мамлакатлари билан савдо-сотиқ алоқаларини амалга ошириб келмоқда. Жумладан, Respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetgan va 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga ko‘paygan[7].

TSAda eksport hajmi 24 426,2 mln. AQSH dollariga (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 23,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 38 141,2 mln. AQSH dollariga (24,0 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -13 715,0 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etilgan[7].

1-jadval. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)[7]

<p>XXR</p> <p>TSA – 13 722,0</p> <p>Eksport: 2 461,8 Import: 11 260,1</p> <p> 21,9 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 9 883,8</p> <p>Eksport: 3 307,6 Import: 6 576,1</p> <p> 15,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 4 398,9</p> <p>Eksport: 1 372,5 Import: 3 026,4</p> <p> 7,0 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 3 099,7</p> <p>Eksport: 1 248,5 Import: 1 851,2</p> <p> 5,0 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 2 343,2</p> <p>Eksport: 40,4 Import: 2 302,9</p> <p> 3,7 %</p>
<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 1 094,4</p> <p>Eksport: 171,2 Import: 923,2</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 1 054,2</p> <p>Eksport: 75,8 Import: 978,4</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 984,7</p> <p>Eksport: 392,1 Import: 592,6</p> <p> 1,6 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 953,4</p> <p>Eksport: 631,5 Import: 321,9</p> <p> 1,5 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 867,0</p> <p>Eksport: 856,7 Import: 10,3</p> <p> 1,4 %</p>



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda 13722,0 mln. AQSH dollari (21,9 %), Rossiyada 9883,8 mln. AQSH dollari (15,8 %), Qozog‘istonda 4398,9 mln. AQSH dollari (7,0 %), Turkiyada 3099,7 mln. AQSH dollari (5,0 %) va Koreya Respublikasida 2343,2 mln. AQSH dollari (3,7 %) to‘g‘ri keladi (1-jadval).

O‘zbekistonning 2023-yilda tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 20 559,5 mln. AQSH dollarini (32,9 %) tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga kamaygan.

Shuningdek, O‘zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilda 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga ko‘paydi va jami TSAdagi ulushi 67,1 % ni tashkil etgan.

O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (48,1 %), Qozog‘iston (21,4 %) hamda Turkmaniston (5,3 %) davlatlari bilan qayd etildi (2-jadval).

2-jadval. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)[7]



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 15 895,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 5 460,7 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 10 434,9 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya 9 883,8 mln. AQSH dollarini, Qozog‘iston 4 398,9 mln. AQSH dollarini, Qirg‘iz Respublikasi 953,4 mln. AQSH dollarini, Belarus 620,1 mln. AQSH dollarini, Armaniston



39,4 mln. AQSH dollarini) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Conclusion

Tahlil natijalari ko'rsatib turibdiki mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari o'rtasida eksportni yanada ko'paytirishning istiqbolli imkoniyatlari mavjud. Ya'ni:

- mamlakatdagi nafaqat siyosiy barqarorlik, balki o'z navbatida iqtisodiy barqarorlikning ham ta'minlanganligi;
- mamlakatimizda savdo-sotiqni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning mavjudligi;
- mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri dengiz yo'llari mavjud bo'lmasada, qulay geografik joylashuvi, ya'ni Sharq va G'arb dunyosini bir-biri bilan bog'laydigan Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi;
- qishloq xo'jaligi va uni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish imkoniyatlarining yuqoriligi hamda mamlakatning turli xil mineral-xomashyo resurslariga boyligi;
- eksportchi korxonalariga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalarning ajratilayotganligi;
- an'anaviy bozorlardan chetlashgan holda eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, sanoat korxonalari faoliyatini jadallashtirish, mahalliy brendlarni ilgari surish;
- tayyor mahsulotlar turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat barqaror xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ta'minlashga intiladi. Chunki, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, birinchidan, xalqaro darajada milliy mahsulot hajmi va ulardan olinadigan daromadning ko'payishini, ikkinchidan, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda mavjud resurslardan samarali foydalanishni, uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar nufuzining oshishiga olib keladi va eng asosiysi aholining farovon yashashini ta'minlaydi.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, mamlakat tashqi savdosida eksport va importning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni PF-5012 13.04.17 y. http://taraqqiyot.uz/about/article_post/tashk-i-savdo-so-asida-boshk-aruv-tizimini-takomillashtirish-chora-tadbirlari-tugrisida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori FQ-3351 03.11.17 y. https://www.norma.uz/raznoe/tashqi_savdo_faoliyatini_yanada_erkinlashtirish_va_tadbirkorlik_subektlarini_qullab-quvvatlash_chora-tadbirlari_tugrisida
3. Asqarov N.I. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohasini uyg'un boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi, 08.00.13 Menejment va marketing. 2016 y. TDIU kutubxonasi.
4. Adilova Z.Dj. Xalqaro bozorga eksport mahsulotlarini yo'naltirishning marketing strategiyasi. Doktorlik dissertatsiyasi. 08.00.13 Menejment va marketing. 2008 y. TDIU kutubxonasi.
5. Axmedov D.K. Effektivnost funkcionirovaniya xlopkovodstva Uzbekistana. –T.: GFNTI.



6. Jumaev Q.X. O‘zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/> 2018 yil 07fevral.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumoti. www.stat.uz

